

**MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA DINIY SOHADA AMALGA
OSHIRILGAN DAVLAT SIYOSATI VA UNING NATIJASI**

Niyazov Zafar Baxodirovich
QarMII tadqiqotchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada mustaqillik yillarida O'zbekistonda diniy sohada amalga oshirilgan davlat siyosati va uning natijasi haqida so'z boradi. Muallif tarixiy ma'lumotlarga tayanib, mavjud ilmiy adabiyotlar asosida muammoni tahlil qilgan. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda diniy sohada amalga oshirilgan davlat siyosati va uning natijasi bo'yicha mavjud o'ziga xos jihatlarni o'rgangan.

Kalit so'zlar: Din, vijdon, dunyoqarash erkinligi, dinlararo bag'rikenglik, diniy konfessiyalar.

Kirish qism (Introduction):

Diniy bag'rikenglik g'oyasi nafaqat dindorlarning, balki butun jamiyat a'zolarining ham yaxshilik yo'lidagi hamkorligini nazarda tutadigan, tinchlik va barqarorlikning muhim shartidir. O'zbekistonning din sohasidagi yangi siyosati mamlakat keng jamoatchiligi orasida ijobiy aks etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek: "Biz islomiy qadriyatlar va musulmon madaniyatini muhofaza qilishimiz lozim. Islom dini tinchlikka, ma'rifatga va ma'naviy boylikka da'vat etadigan din. Buyuk ajdodlarimiz - Islom dunyosining mutafakkirlari yutuqlari, ularning jahon tamadduni taraqqiyotiga qo'shgan mislsiz hissalarini o'rganish va ommalashtirish o'ta muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston islomiy madaniyat noyob merosiga ega va Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Rayhon Beruniy, al-Xorazmiy, Imom al-Moturidiy va boshqa buyuk arboblarning nomlari nafaqat musulmon mamlakatlari, balki butun dunyoga yaxshi tanish".

Mustaqillik yillarida dastlab yurtimizda yashayotgan turli xalqlar o'rtasida o'zaro hamjihatlikni mustahkamlashning qonuniy asoslari yaratildi. Mustaqillik arafasida, xususan, O'zbekiston tarixida birinchi marta 1991-yilning 14-iyunda Respublika Oliy Kengashi tomonidan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi[1]. Mazkur Qonunda O'zbekiston Respublikasida dinlar va diniy tashkilotlarning davlatdan ajratilganligi, bir din yoki diniy e'tiqod uchun biron-bir darajada imtiyoz yoki cheklashning belgilanishiga yo'l qo'yilmasligi belgilab qo'yildi. Shuningdek, Davlat diniy tashkilotlar zimmasiga davlatning qandaydir vazifalarini bajarishni yuklamasligi, diniy tashkilotlarning

<https://conferencea.org>

qonunlarga zid bo'lgan faoliyatiga aralashmasligi, diniy tashkilotlar davlat vazifalarini bajarmasligi va boshqalar ta'kidlandi.

Asosiy qism (Main part):

Ushbu Qonunning ijrosini ta'minlash maqsadida 1992-yilning mart oyida Vazirlar Mahkamasi huzurida Din ishlari bo'yicha Qo'mita tashkil etildi[2], diniy ehtiyojlarni qondirish, erkin ibodat qilish, diniy marosimlarni nishonlash va boshqa faoliyatga yo'l ochildi. Shu bilan birga, diniy tashkilotlar tomonidan yo'l qo'yilayotgan turli suiste'molliklarga chek qo'yish ishlari olib borildi.

Shu bilan birga, diniy bag'rikenglikning ta'minlash bo'yicha asosiy tamoyillar 1992-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham belgilab qo'yildi. Jumladan, Bosh qonunimizning 18-moddasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga egaligi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi ko'rsatilgan bo'lsa, 31-moddasida esa hamma uchun vijdon erkinligining kafolatlanishi, har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega ekanligi, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmasligi belgilab qo'yildi. Mazkur qoidalar diniy bag'rikenglikning ta'minlashning huquqiy asoslarini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylashga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, 1995-yilning oktyabr oyida Toshkent shahrida "Bir osmon ostida" shiori bilan xalqaro musulmon-nasroniy konferensiyasi o'tkazildi, 1996-yilning noyabrida esa Rus pravoslav cherkovi Toshkent va Markaziy Osiyo yeparxiyasining 125 yilligi nishonlandi. Shu bilan birga, o'tgan yillar davomida turli diniy jamoalarning yubileylariga bag'ishlangan keng ko'lamli tadbirlar tashkil qilindi. Xususan, 2003 yilning oktyabr oyida Samarqandda Arman apostol cherkovining 100 yilligi nishonlandi[3]. Yubiley tadbirlarida yurtimizdagi barcha konfessiyalar vakillari ishtirok etdi.

Mazkur tadbirlar amalga oshirilishiga qaramasdan, tarixan islom dinining hanafiy mazhabiga ergashib kelgan aholini to'g'ri yo'ldan og'dirish, aqidaparastlik va mutaassiblikka asoslangan qarashlarni tarqatishga urinishlar yuz berdi. Oqibatda, asosan, dindorlar orasida o'zaro kelishmovchiliklar yuz berib, diniy ekstremistlar ta'siriga tushib qolgan ayrim fuqarolar tomonidan og'ir jinoyatlar sodir etildi. Yaratilgan imkoniyatlarni suiiste'mol qilgan ayrim noislomiy diniy tashkilotlar tomonidan missionerlik harakatlarini olib borishga urinishlar sodir bo'ldi[4].

Yuqorida keltirilgan bir qator omillar "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunni takomillashtirish, mamlakatda xavfsizlikni ta'minlash nuqtai nazaridan kelib chiqib, vijdon erkinligi bilan bog'liq huquqlar doirasini yanada aniqlashtirishni talab qildi. Natijada,

1998-yil may oyida “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni yangi tahrirda qabul qilindi.

O‘tgan davrda hukumat tomonidan mazkur soha bo‘yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning soni va salmog‘i oshib bordi. Jumladan, 1990-2005-yillarda diniy sohadagi faoliyatni tartibga solish borasida O‘zbekiston Prezidentining 16 ta farmoni qabul qilingan bo‘lsa, 2014-yilga kelib bu raqam 18 tani tashkil etdi. Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qarorlar bo‘yicha ham shunga yaqin holatni kuzatishimiz mumkin. Jumladan, 1990-2005-yillar davomida ushbu organ tomonidan soha faoliyatini tartibga soluvchi 48 ta qaror qabul qilingan bo‘lib[5], 2014 yilda bu raqam 54 taga yetdi[6]. Shu bilan birga, mustaqillik yillarida diniy tashkilotlarning soni ortib borganligini ko‘rish mumkin. Agar 1990-yilda mamlakatda 119 ta diniy tashkilot faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 2015-yilga kelib, ularning soni 2200 tadan oshdi. Amalga oshirilgan shu va boshqa tadbirlar diniy soha faoliyatini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Bu yo‘nalishdagi islohotlar 2016-yildan yangi bosqichga ko‘tarildi. Jumladan, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, yon-atrofimizda xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnilik muhitini rivojlantirish, yurtimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash masalalariga alohida o‘rin berildi[7].

Bu boradagi tadbirlarni xalqaro miqyosda hal etish bo‘yicha ham hukumat tomonidan qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, 2017-yil sentyabr oyida BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan tashabbus asosida mazkur tashkilotning oliy organi 2018-yilning 12-dekabrida o‘tkazgan yalpi majlisda “Ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiya qabul qilindi. O‘zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan hujjat loyihasi BMTga a‘zo barcha davlatlar tomonidan bir ovozdan qo‘llab-quvvatlandi[8].

Bu paytga kelib diniy-ma‘rifiy soha faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarish davr taqozosiga aylandi. Shu sababdan, mazkur soha faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha bir qancha tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, 2018-yil 16-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Diniy-ma‘rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni e‘lon qilindi. Mazkur Farmon O‘zbekistonda diniy ta‘lim tizimining uzluksizligini ta‘minlashga qaratilgan bo‘lib, boshlang‘ich bosqichdan oliy va undan keyingi diniy ta‘limgacha jarayonlarni qamrab oldi[9].

Bundan tashqari, Din ishlari bo‘yicha qo‘mita faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha tegishli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 2018-yil 16-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul

qilindi. Mazkur Qarorga muvofiq Qo‘mita huzurida faoliyat yuritadigan jamoatchilik-maslahat organi hisoblangan Konfessiya ishlari bo‘yicha kengashning yangi tarkibi tasdiqlandi. Kengash tarkibi 9 tadan 17 ta a‘zoga – O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan diniy konfessiyalar vakillari hisobiga kengaytirildi[10].

Natijalar va muhokamalar (Results and Discussions):

Mazkur davrda qorilar musobaqasi o‘tkazish ishlari ham yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, 2018-yilning yanvar-aprel oylarida mamlakat miqyosida bir necha bosqichdan iborat (tuman, shahar, viloyat, respublika) Qur‘oni karim tilovati bo‘yicha qorilar ochiq musobaqasi tashkil etilib, unda 5 mingdan ziyod ishtirokchi qatnashdi. Shu bilan birga, mazkur davrda Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etildi, viloyatlarda esa kalom, hadis, fiqh, aqida ilmi va tasavvufni o‘rganishga ixtisoslashgan beshta ilmiy maktab ochildi.

Bundan tashqari, mamlakatda ekstremizmga qarshi kurashish chora-tadbirlarini amalga oshirishdagi yondashuvlar konseptual jihatdan qayta ko‘rib chiqildi. Bunda asosiy e‘tibor aholi o‘rtasida profilaktika va tushuntirish ishlariga qaratildi. Ushbu sohada amalga oshirilayotgan barcha sa‘y-harakatlar “Jaholatga qarshi – ma‘rifat” degan ezgu g‘oyaga asoslandi. 2018-yilning sentyabr oyida esa terroristik, ekstremistik yoki boshqa ta‘qiqlangan tashkilot va guruhlariga adashib a‘zo bo‘lib qolgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tartibi tasdiqlandi.

Jamiyatda vijdon erkinligi va diniy-ma‘rifiy muhit barqarorligi kafolatlarini ta‘minlash muhim ahamiyatga ega ekanligi hisobga olinib, bu borada ham talay ishlar amalga oshirildi. Xususan, 2019-yil 4-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Diniy-ma‘rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori e‘lon qilindi[11]. Mazkur Qaror asosida jamiyatda vijdon erkinligi va diniy-ma‘rifiy muhit barqarorligi kafolatlarini ta‘minlashni nazarda tutuvchi yangi tizim joriy etildi.

Bu paytda diniy ma‘rifiy ta‘lim sohasida ham katta o‘zgarishlar yuz berdi. Xususan, O‘zbekiston Islom akademiyasi va Toshkent Islom universiteti negizida O‘zbekiston xalqaro Islom akademiyasi tashkil etildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Samarqand, Namangan va Surxondaryo viloyatlarida Akademiya tarkibidagi malaka oshirish Markazi hududiy filiallari tashkil etildi. Amalga oshirilgan mazkur tadbirlar diniy ta‘lim rivojida muhim ahamiyat kasb etdi.

Masjidlar, ziyoratgohlar, muqaddas qadamjolar va shu kabi boshqa obyektlarning rekonstruksiyasini moliyalashtirish, ularni moddiy-texnik bazasini yaxshilash hamda ushbu soha xodimlarini moddiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ham bir qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Diniy-ma‘rifiy soha

faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga O'zbekiston musulmonlari idorasi huzurida "Vaqf" xayriya jamoat fondi tashkil etildi[12].

Bu boradagi ishlar keyingi yillarda ham amalga oshirildi. Jumladan, 2021-yilning 5-iyul kuni yangi tahrirdagi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi[13]. Mazkur Qonunda bir qancha yangiliklar nazarda tutildi. Xususan, mahalliy diniy tashkilotlar, jumladan, masjidlar va boshqa konfessiyalarning ibodatxonalarini tashkil etish bo'yicha tashabbuskor fuqarolar soni ikki barobar kamaytirilib, 50 nafardan kam bo'lgan holda etib belgilandi. Shuningdek, diniy tashkilotning markaziy boshqaruv organi va diniy ta'lim muassasalarini tuzish uchun ham 100 nafar tashabbuskor bo'lishi haqidagi talab bekor qilindi.

Bundan tashqari, diniy tashkilotni davlat ro'yxatidan o'tkazish bilan bog'liq xizmatlar to'liq elektron shaklda, inson omilisiz amalga oshirilishi joriy etildi. Ro'yxatdan o'tkazuvchi adliya idoralariga taqdim etiladigan hujjatlar soni keskin qisqardi, ularni ko'rib chiqishning muddati esa 3 barobarga kamaydi, ya'ni 3 oydan 1 oyga tushirildi. Bu bilan ortiqcha byurokratik to'siqlar bartaraf etildi va hokazo[14].

Xulosa (Conclusion):

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, mustaqillik yillarida diniy bag'rikenglikni, konfessiyalararo munosabatlarda barqarorlikni ta'minlash borasida keng miqyosdagi islohotlar amalga oshirildi va bu jarayon izchil davom etmoqda. Sohaga tegishli normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi va ular muttasil takomillashtirilmoqda, muntazam ravishda turli diniy tashkilotlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash choralari ko'rilyapti. O'tgan davrda yuzlab masjid, cherkov, sinagoga va ibodat uylari qurildi va qayta ta'mirdan chiqarildi. Keyingi yillarda mazkur soha rivoji yangi bosqichga ko'tarildi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References):

1. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq mazkur Qonunning nomidagi hamda matnidagi "O'zbekiston SSR" degan so'zlar tegishli kelishikdagi "O'zbekiston Respublikasi" degan so'zlar bilan almashtirilgan.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 7 mart kunidagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mitani tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni. Lex.uz
3. Qosimov A. Ijtimoiy bag'rikenglik tinchlik va taraqqiyot garovidir. <https://zamaxshariy.uz/4527/>

4. Dinshunoslik asoslari. O‘quv qo‘llanma/ Toshkent, “Toshkent Islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi”, 2013, -B.262
5. Rasulov A. Diniy bag‘rikenglik tamoyillari yoshlar talqinida//Talabalar respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. –T., 2015, – B. 17.
6. Musayev O.R. O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlari/ Falsafa va huquq/ 2017 yil 1-son
7. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF–4947-son Farmoni// O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami 2017 yil 13-fevral, 6-son (766), -B.25-28.
8. O‘zbekiston Prezidentining tashabbusi jahon hamjamiyati tomonidan yakdillik bilan qo‘llab-quvvatlandi// Xalq so‘zi gazetasi, 2018 yil, 14-dekabr, № 259(7217) –B.1.
9. “Diniy-ma‘rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni// Xalq so‘zi gazetasi, 2018 yil, 17-aprel, № 75(7033) –B.1,4
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami 2018 yil 23-aprel, 16-son, -B.145-147.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Diniy-ma‘rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori//O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami 2019 yil 16-sentyabr, 37-son (901), -B.95-98.
12. “Diniy-ma‘rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni// Xalq so‘zi gazetasi, 2018 yil, 17-aprel, № 75(7033) –B.1,4
13. Yangi tahrirdagi “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni// O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami 2021 yil iyul, 27-son (995), -B.4-22.
14. Yangi tahrirdagi “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni// O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami 2021 yil iyul, 27-son (995), -B.4-22.